



Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2025-yil 29-yanvar № 1 (1547)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI



TABIATNI ASRASHGA BARCHAMIZ MAS'ULMIZ

Har bir hudud, har bir makonning obodligi va musaffoligiga kundalik vazifa darajasida e'tibor qaratish – davr talabiga aylanadi. Atrof-muhit muvozanatini saqlashga bo'lgan e'tibor har doimgidan ham katta.

Bugun dunyo bo'yicha ozon qatlami yemirilishi, muzliklar erishi, chuchuk suv manbalari kamayishi, tuproq unumdor qatlamining yo'qolib borishi, cho'llanish, yerdagi bioxilma-xillikning kamayishi, maishiy chiqindilarning ko'payishi, iqlim o'zgarishi, Orol fojiasi, chang-to'zonlar ko'tarilishi kabi ekologik muammolar butun dunyo davlatlarini tashvishga solmoqda. Shu bois, mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, “yashil maydonlar”ni kengaytirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'simliklar va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi va tabiiy resurslarni asrash hamda chiqindi muammolarini bartaraf qilish, ekologik ta'limni joriy etishga qaratilgan e'tibor va bu borada me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotgani, bu yil mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e'lon qilingani fikrimiz dalilidir.

Tabiat va iqtisodiyotni bir-biri bilan uyg'un holda barqaror rivojlantirish yashil iqtisodiyotning asosini tashkil etadi. Yashil iqtisodiyot – insonning aziz umri va hayoti uchun zarur bo'lgan resurslar: toza havo, daryolar va dengizlar, o'rmonlar, bog'rog'lar, yam-yashil qir-adirlarni bir butun, aslcha saqlab qolgan holda, ishlab chiqarish, qurilish, xizmat ko'rsatish tizimlari bilan uyg'unlashgan iqtisodiy faoliyatning yangi turidir.

“O'zmetkombinat” Ajda ham atrof-muhit musaffoligini saqlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan kombinat hududlarini ko'kalamzorlashtirishda salmoqli ishlar bajarildi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi boshlanganidan buyon “O'zmetkombinat” Ajda ham yangi bog'rog'lar barpo etish, atrofni ko'kalamzorlashtirish muhim vazifalardan biriga aylandi. Keyingi uch yilda kombinatda 300 mingga

yaqin daraxt va buta ko'chatlari ekildi. Kombinat atrofida “Yashil belbog'” yaratilmoqda.

O'tgan yili “O'zmetkombinat” 80 yilligi” bog'i barpo etildi. Shuningdek, Navli prokatlash, Energetika bo'linmalarining tashqi hududlarida hamda sobiq “Bekobodmontaj” boshqarmasi yonida ham shunday bog'lar tashkil etildi. Ularda minglab tup manzarali daraxt va buta ko'chatlari ekildi.

Kombinat va unga tutash hududlarda ekilgan daraxtlarni o'z vaqtida sug'orish, parvarishlash va agrokimyoviy ishlov berish ishlari mas'ul xodimlar tomonidan nazorat qilib borilmoqda.

Atrof-muhitni asrash faqat davlatning yoki korxonalarning vazifasi emas, har birimizning burчимizdir. Har birimiz tabiatni sevib, uni himoya qilishda faol bo'lib, mahallalarimizda, uylarimiz atrofida ham turli daraxt ko'chatlari ekib mamlakatimizni yashash uchun yanada qulay va ekologik xavfsiz yurtga aylantira olamiz. Bu esa farzandlarimizga sog'lom va go'zal kelajak qoldirishimiz uchun muhim asos bo'ladi.

Diyor ZULFIQOROV.

BUGUNGI SONDA

MONOPOLIYA

Zamonaviy yondashuv 3

KORRUPSIYA

Birgalikda kurashamiz! 5

JARAYON

Zamonaviy va sifatli 6

BOR GAP

Yuzi shuvut bo'ldi 7

SO'RAGAN EDINGIZ

Asosiy ish joyidan rozilik kerakmi? 8

SALOMATLIK

Eng samarali chora 9

EHTIROM

Yaxshidan bog' qoladi 10

TAFAKKUR QIL

Ishsiz qolsang ham, rost gapir! 11

TEJAMKORLIKKA AMAL QILAYLIK!

ENERGIYANI TEJASH – DAVR TALABI

Bugungi kunda butun dunyoda iqlim sharoitining o'zgarishi, aholi sonining ko'payishi, sanoatning rivojlanishi natijasida yoqilg'i-energiya va issiqlikka bo'lgan talab ortmoqda. Bunday sharoitda energiya resurslari bilan xalqimizni va iqtisodiy tarmoqlarni to'liq ta'minlash eng asosiy masala bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda ham energiya resurslaridan samarali foydalanish, ularni tejashga katta e'tibor qaratilmoqda. 2024-yilning 7-avgust kuni "Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

HUKUMAT QARORLARIDA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7-avgustdagi "Yoqilg'i-energetika resurslari iste'molchilarini energetika tekshiruvidan va ekspertizadan o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 164-son qarorida shunday ta'rif berilgan:

►energiyani tejash – energetika resurslaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan huquqiy, tashkiliy, ilmiy, ishlab chiqarish, texnik va iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

►energetika resurslaridan samarali foydalanish – texnika va texnologiyalar rivojlanishining mavjud darajasida va atrof-muhitni muhofaza qilishga qo'yiladigan talablarga rioya qilgan holda energetika resurslaridan foydalanishning iqtisodiy o'zini oqlagan samaradorligiga erishish.

DUNYO MIQYOSIDA

Dunyoda ko'plab mamlakatlarda energiya iste'moli masalalari 1970-yillardan beri energiya samaradorligini oshirish bo'yicha davlat siyosati va maxsus dasturlar orqali amalga oshirib kelinadi. Bugungi kunda sanoat sektori dunyodagi yillik birlamchi energiya iste'molining qariyb 40 foizini va global karbonat angidrid chiqindilarining taxminan shuncha qismini tashkil qiladi. Bu yo'nalishda ISO 50001 xalqaro standarti qabul qilingan bo'lib, u energiya samaradorligi masalalarini tartibga soladi.

Misol uchun, ko'pgina tashkilotlar faoliyati energiya samaradorligi bo'yicha xalqaro dasturlar ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ularning eng yirigi – Xalqaro energetika agentligi (XEA) – Energy Efficiency hisoblanadi. Shu bilan birga, bunday tashkilotlar Yevropa Ittifoqida, Buyuk Britaniya, Meksika, Kanada, AQSH, Janubiy Afrika Respublikasi (JAR), Indoneziya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Eron, Xitoy Xalq Respublikasi, Yangi Zelandiya, Rossiya Federatsiyasi, Braziliya, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Umumiy energiya iste'moli bo'yicha birinchi o'rinni AQSH, ikkinchi va uchinchi o'rinni Xitoy va Hindiston, to'rtinchi o'rinni Rossiya egallagan. O'zbekiston, nonews.co ma'lumotlariga ko'ra, "kishi boshiga elektr energiyasi iste'moli bo'yicha dunyo mamlakatlari ro'yxati"da 88-o'rinni egallagan bo'lib (2014), o'zbekistonlik bir fuqaroning yillik elektr energiya iste'moli 1645 kilovatt soatni tashkil etgan. Yana bir statistik ma'lumot – yiliga ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi bo'yicha mamlakatlar ro'yxatida (teravatt•soat hisobida) O'zbekiston 47-o'rinda qayd etilgan.

ENERGIYA SAMARADORLIGI

Energiya resurslaridan samarali (ratsional), ya'ni oqilona foydalanishga qaratilgan jarayonlar majmui – energiya samaradorligiga beriladigan birlamchi ta'rifdir. Binolarning energiya ta'minoti



yoki ishlab chiqarish jarayonlari uchun kamroq energiya sarflash evaziga kerakli natijaga erishish ham samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Texnika va texnologiya rivojlanishining hozirgi darajasida yoqilg'i-energetika resurslaridan foydalanishda iqtisodiy jihatdan asoslangan samaradorlikka erishish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya qilish ham shular jumlasidan. Energiya samaradorligiga oid tushuncha va bilimlar majmui muhandislik, iqtisod, huquq va ijtimoiy sohalar chorrahasida qaror topadi va har bir jamiyat uchun "lozim qiyofa"da shakllanadi.

ZAMONAVIY HAYOTIMIZDA

Ma'lumki, fizika qonunlariga ko'ra, energiya bordan yo'q, yo'qdan bor bo'lmaydi, faqat uning shakli o'zgaradi. Bugungi kunda ham elektr energiyasi aylanma mexanik harakat evaziga magnit maydon hosil qilish orqali olinadi (issiqlik elektr stansiyalari va gidroelektr stansiyalarida) va iqtisodiyot tilida mahsulotning alohida turi deb ataladi. Negaki, uni g'amlash yoyinki saqlab qo'yishning imkoni yo'q. Elektr energiyasining harakat tezligi yorug'lik tezligiga teng bo'lib, ishlab chiqarilgan ondayoq iste'mol qilinadi. Mexanik energiyasi esa issiqlik energiyasi hisobiga (bug'gaz qurilmalarida) paydo bo'ladi va bu jarayonni neft-gaz mahsulotlari yoki ko'mir yoqilg'isiz tasavvur etish mumkinmas. Tabiiy boyliklarimiz esa behisob emas. Qolaversa, an'anaviy turda elektr energiyasi ishlab chiqarish – ekologik barqarorlikka zid ko'rsatkich. Shuning uchun mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga oid o'nlab yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda.

KUNDALIK HAYOTIMIZDA

Demak, mantiqiy xulosa shuki, mavjud ener-

goresurslardan tejamkorlik bilan foydalanish davr talabi. Buning uchun foydalanilmayotgan elektr jihozlari va yoritish uskunalarini tarmoqdan uzib qo'yish, ya'ni ofis yoki ish xonalaridan chiqayotganingizda elektr jihozlarini o'chirib, tarmoqdan uzish orqali tejamkorlik tomon dastlabki qadamni tashlagan bo'lasiz. Ish joyi va uy binosi xonalarini ko'proq tabiiy yorug'likdan (quyosh nuridan) foydalangan holda yoritishga harakat qilish ortidan ikkinchi qadamni bosa-

siz. Ko'cha-kuyda, mahallada, dam olish maskanlari va kombinat ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanilmayotgan elektr jihoz va qurilmalarini tarmoqdan uzib qo'yishni talab qilsangiz – energiya tejamkorligi va samaradorligi bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatib, uchinchi qadamni tashlashga muyassar bo'lasiz. Zero, dono xalqimizda "Dengiz sohilida tahorat olgan bo'lsang ham suvni keragidan ortig'ini ishlatma", degan ibratli naql bor.

Ofis xonalarining eshik va deraza romlari qishda issiq, yozda sovuq haroratni saqlash uchun izolyatsiya qilingan bo'lishi, energiya tejamkor



maishiy texnika va yoritish uskunalaridan foydalanish – energiya samaradorligi uchun dastlabki qadam hisoblanadi. Xuddi shu kabi neft-gaz mahsulotlaridan ham tejamkorlik bilan foydalanib, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. Isitish va sovitish jihozlaridan ham to'g'ri, oqilona foydalanish – energiya samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri. Ushbu ko'rsatkichlar, avvalo, shaharsozlik loyihalari, bino-inshootlar qurilishini loyihalashtirish, qurilish materiallarini tanlash, sifatli qurish jarayoni, bino-inshootlarning ichki intererni jihozlash, uni to'g'ri ekspluatatsiya qilish (bino-inshootlardan foydalanish) me'yorlariga amal qilish bilan chambarchas bog'liq. Oddiy so'z bilan aytganda, noto'g'ri qurilgan bino-inshootdan tortib noto'g'ri foydalanilgan oddiy maishiy uskuna-jihozlargacha – iqtisodiyotga katta zarar, jamiyat va davlat taraqqiyotining kushandasi hisoblanadi.

Aziz metallurqlar! Hammamiz energiya tejamkorlikka amal qilishimiz va kombinat rivojiga hissa qo'shish kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lishi shart.

To'lqin XOJIYEV,

"O'zmetkombinat" AJning
Kuzatuv Kengashi huzuridagi
Komplaens xizmati boshlig'i.

MONOPOLIYAGA QARSHI KURASHISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida keng qamrovli islohotlar boshlandi, ular mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish va barqaror o'sish uchun shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan kurs qabul qilindi. Mazkur yo'nalish asoslarini yaratish va qabul qilingan kursning sabablarini shakllantirish uchun asosiy yo'nalishlardan biri bu monopoliyalarga qarshi kurashishdir.

Monopoliyalar sog'lom bozor iqtisodiyoti uchun asosiy tahdidlardan birini tashkil qiladi. Ular raqobatni cheklaydi, innovatsiyalarni sekinlashtiradi, narxlarni oshiradi va tovarlar hamda xizmatlar sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli, monopoliyalarga qarshi kurashish davlatlar va nazorat organlari uchun muhim vazifa hisoblanadi. Monopoliyalarga qarshi kurashish usullari an'anaviy antimonopol tartibga solish vositalarini ham, raqamli davr chaqiriqlariga moslashtirilgan yangi yondashuvlarni ham o'z ichiga oladi.

Xususan, "O'zmetkombinat" AJ uchun eng muhim yo'nalish bu metallurgiya sohasidagi monopoliyalarga qarshi kurashishdir. Bu yo'nalish raqobatni ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulotlarning mavjudligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy va tashkilotchilik chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi. Quyida metallurgiya sohasida monopoliyaga qarshi kurashning asosiy jihatlari bayon etilgan:

ANTIMONOPOL QONUNCHILIGI

• Davlat organlari bozorda bir kompaniyaning ustunlik qilish imkonini cheklaydigan qonunlarni ishlab chiqadi va joriy etadi.

Eng samarali va yorqin misol bu O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan quyidagi qarorlardir:

• "Raqobat muhitini takomillashtirish, yoqilg'i-energetika resurslari va boshqa yuqori likvidli mahsulotlar bilan ta'minlash sohasidagi qonunbuzarliklar va o'g'riliklarni bartaraf etish, to'lov intizomini mustahkamlash, debitorlik va kreditorlik qarzdorligini qisqartirish choralari to'g'risida". 2017-yil 14-noyabrda 3386-sonli qaror.

• "Tovar-xomashyo birjalari faoliyati samaradorligini oshirish va birja savdo mexanizmlarini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida". 2019-yil 8-oktabrda 4484-sonli qaror.

• "Yuqori likvidli va monopol mahsulotlarni sotish jarayonlariga bozor mexanizmlarini

yanada joriy etish choralari to'g'risida". 2021-yil 17-martda 5031-sonli qaror.

• Yirik kompaniyalarning qo'shilish va sotib olish bitimlarini nazorat qilish, kartellar va monopoliyalarning paydo bo'lishining oldini olish.

• Bozorda ustunlik qilishdan suiiste'mol qilish uchun sanksiyalar joriy etish (masalan, narxlarni asossiz oshirish, xomashyo resurslariga kirishni cheklash).

RAQOBATNI RAG'BATLANTIRISH

• Kichik va o'rta biznesni subsidiyalar, soliq imtiyozlari va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari orqali qo'llab-quvvatlash.

• Bozorni liberallashtirish: bozorga yangi ishtirokchilar chiqishi uchun tartib-taomillarni soddalashtirish.

• Milliy va xorijiy kompaniyalar uchun teng sharoitlar yaratish.

BOZORNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH

• Xomashyo va uskunarlar yetkazib beruvchilar sonini oshirish.

• Metall ishlab chiqarishning alternativ texnologiyalarini rivojlantirish, shu jumladan ikkinchi darajali resurslarni qayta ishlash.

• Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va global ta'minot zanjirlarida ishtirok etish.

TARMOQNI RAQAMLASHTIRISH

• Metall mahsulotlari savdosining shaffofligini ta'minlash uchun raqamli platformalardan foydalanish.

• Ta'minot zanjirlarini boshqarish uchun avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqish, bu suiiste'molchiliklarning oldini olishga yordam beradi.

• Bozor sharoitlarini monitoring qilish va tahlil qilish uchun raqamli yechimlarni yaratish.

FAN VA TEXNOLOGIYALARGA INVESTITSİYALAR KIRITISH

• Metallurgiya sohasidagi tadqiqotlar va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash.

• Yirik o'yinchilarga bog'liqlikni kamaytirish imkonini beradigan innovatsion texnologiyalarni joriy etish (masalan, yangi usullarda po'lat yoki aluminiy ishlab chiqarish).

• Tarmoqning energiya samaradorligini va ekologik barqarorligini oshirish.

GLOBAL INTEGRATSIYA

• Xalqaro tashkilotlar (masalan, Jahon savdo tashkiloti) bilan hamkorlik qilish, xalqaro monopoliyalar paydo bo'lishining oldini olish.

• Global darajadagi antimonopol tergovlarda ishtirok etish.

• Milliy antimonopol qonunchiligini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish.

MONOPOLIYAGA QARSHI KURASHISHNING MUVAFFAQIYATLI MISOLLARI

• O'zbekistondagi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining antimonopol qonunchilik ijrosi bo'yicha samarali faoliyati.

• O'zbekistonning metallurgiya korxonalari mahsulotlarini Respublika tovar-xomashyo birjasida sotishni tashkil qilish.

• Yevropa Ittifoqida metallurgiya sohasida monopoliyalarning paydo bo'lishining oldini olishga qaratilgan qat'iy antimonopol siyosat amal qiladi. Masalan, 2019-yilda Yevropa Komissiyasi ThyssenKrupp va Tata Steel kabi ikki yirik po'lat ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning qo'shilishini blokladi.

• Xitoyda hukumat ishlab chiqarishni dekonstratsiya qilish siyosatini olib bormoqda, bu mamlakat ichida raqobatni kuchaytirdi.

"O'zmetkombinat" AJ antimonopol kurash sohasida amaldagi Respublika qonunchiligiga hamda umumjahon amaliyotiga to'liq muvofiq keladi va unga rioya qiladi. Ko'plab holatlarda, biz bu yo'nalishdagi ilg'or o'zgarishlarning tashabbuskorimiz. Qabul qilingan yo'nalish albatta bizning korxonamizning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi.

Aleksandr KIBENKO,
"O'zmetkombinat" AJning
Marketing va mahsulotlarni sotish
departamenti direktori.

ISTIQBOLLI HAMKORLIK YO'LIDA



"O'zmetkombinat" va "O'zavtosanoat" o'rtasida issiq prokat yetkazib berish bo'yicha hamkorlik boshlanishi rejalashtirilmoqda. Shu maqsadda "O'zavtosanoat" AJning mutaxassislaridan tashkil topgan delegatsiya yaqinda kombinatga tashrif buyurdi. Mehmonlar "O'zmetkombinat" AJning tarmoq korxonalari uchun yengil avtomobillar va ularning qismlari, prokatlangan po'lat listlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish imkoniyatlarini o'rganishdi.

Ular kooperatsiya aloqalarini yanada rivojlantirish, loyihalar bo'yicha kombinatning mutasaddi vakillari bilan muzokaralar o'tkazdilar. Mehmonlar Quyuv-prokatlash majmuasiga tashrif buyurishdi. Ular kombinat mutaxassislaridan o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishdi.



AJDODLARIMIZ MEROSI – BEQIYOS MA'NAVIY XAZINADIR

BUYUK SHOIR VA MUTAFAKKIR ALISHER NAVOIY BOBOMIZ VA SHOH VA SHOIR ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUD TOPGAN KUNI HARYILI FEVRAL OYIDA YURTIMIZDA TANTANALI VA BAYRAMONA KAYFIYATDA NISHONLANIB KELINADI. ALISHER NAVOIY HAMDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ULKAN MEROSI – BEPOYON UMMON, UMMONKI, UNDAN DURU GAVHAR TERASIZ.

BUYUK SHOIR VA MUTAFAKKIR

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ikki tilda mukammal ijod qilgan. Turkiy tilda "Navoiy", forsiy tilda esa "Foni" taxalluslarini qo'llagan.

Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini to'rt faslga bo'lish mumkin: 1. Devonlari. 2. Dostonlari. 3. Forsiy tildagi she'riy merosi. 4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari.

Alisher Navoiyning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan "Xazoyin ul-maoniy" devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismiga "G'aroyib us-sig'ar" ("Bolalik g'aroyibotlari"), ikkinchi qismiga "Navodir ush-shabob" ("Yigitlik nodirotlari"), uchinchi qismiga "Badoe' ul-vasat" ("O'rta yosh badialari") va nihoyat, to'rtinchi qismiga "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari") degan nomlar berildi.

Alisher Navoiy butun ijodi davomida turli janr va yo'nalishlarda salmoqli ijod qilgan. Nasrda ham, nazmda ham yetuk asarlar yaratgan. Nasrda Navoiy asosan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy va ilmiy-falsafiy, iqtisodiy yo'nalishlarda qalam tebratgan.

1483-1485-yillar Navoiy o'z ichiga besh dostonni olgan "Hamsa" asarini yaratgan: "Hayrat ul-Abror" ("Yaxshi

kishilarning hayratlanishi"), "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" ("Yetti sayyora"), "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori").

52 ming misradan iborat bu beshlik 15-asr islom tafakkurining borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va kamolot haqidagi o'ziga xos qomusi edi.

Alisher Navoiy Xuroson davlatida bosh vazir, katta mulk egasi bo'lgan. Alisher Navoiy shaxsiy daromadini masjidlar, madrasalar, ko'priklar qurishga sarflagan. O'z jamg'armasi hisobidan Hirotda va butun Xuroson mamlakatida 300 dan ortiq inshootlar qurdirgan. Shuningdek, boyligini miskinlarga yemak va kiyim-bosh berishga, qobiliyatli kishilarni qo'llab-quvvatlashga, boringki, el-yurt ishlariga ko'p sarflagan ekan.

Xalqimiz bu buyuk ajdodimizni "Agar biz Hazrat Navoiyni shoir desak, ul zot shoirlar shoiri, agar mutafakkir desak, mutafakkirlar mutafakkiri, agar avliyo desak, avliyolarning avliyosidir", deb ulug'lab keladi.

SHOH VA SHOIR

Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat



BUYUK AJDODLARIMIZ

arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi. "Boburiylar sulolasi" Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qildi.

U yirik davlat arbobi bo'lish bilan birga serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, "Mubayyin" ("Bayon etilgan"), "Xatgi Boburiy", "Harb ishi", aruz haqidagi risolalari esa islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Bobur – shoh va shoir, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida

butun dunyoda mashhur. Birgina "Boburnoma"dan uning 20 dan ortiq sohaga qiziqqanini bilish mumkin.

Butun hayoti va ijodini insonning baxt-saodati, mamlakat obodonchiligi va xalq farovonligi uchun kurashga, ilm-fan, san'at va adabiyotning taraqqiyotiga bagishlagan Bobur o'zining o'lmas asarlari bilan o'zbek adabiyoti, shu bilan birga jahon adabiyoti xazinasini bebaho durdonalari bilan boyitib, buyuk so'z san'atkori sifatida insoniyat qalbidan mustahkam joy oldi.

Albatta, buyuk ajdodlarimiz tarixiy xizmatlarini ko'plab keltirish mumkin. Shunisi aniqki, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburni anglash millat ongu tafakkuri yuksalishiga xizmat qiladi.

Abdusalom ABDULLAYEV.

VATAN HIMOYACHILARI KUNI

XURSANDCHILIK BILAN NISHONLANDI

Tinchlik va osoyishtalik – mamlakatda barqaror taraqqiyotning kafolatidir. Shu bois xalqimiz azaldan tinchlik va osoyishtalikni Vatan, Ona, Ozodlik kabi muqaddas tushunchalar qatorida ulug'lab, mamlakat sarhadlari daxlsizligini va xavfsizligini munosib himoya qilib kelayotgan harbiy xizmatchilarni doimo hurmat qilib kelgan.

Shuning uchun ham mamlakatimizda Vatan himoyachilari kuni katta xursandchilik bilan nishonlanadi. Kombinatimizda ham bu bayram munosabati bilan bir qator tadbirlar o'tkazildi.

Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan kombinat Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan metallurglar uchun Toshkent shahriga sayohat tashkil etildi. Metallurglar dastlab O'zbekiston Qurolli Kuchlari davlat muzeyiga tashrif buyurishdi.

Bu muzey ekspozitsiyasi Qurolli kuchlar tarixi, Markaziy Osiyo xalqlari harbiy san'ati, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari rivojlanishining hozirgi davrini aks ettiradi. Shuningdek, muzeyda buyuk sarkarda Amir Temurga bag'ishlangan alohida "Temuriylar davri harbiy san'ati" ekspozitsiyasi ham mavjud. Bu yerda harbiy yurishlar xaritalari, askarlar



saflanishining sxemalari, qurol-aslahalar, nishonlar va Temuriylar davrining boshqa eksponatlari o'rin olgan.

Muzeyda O'zbekiston xalqining ikkinchi jahon urushida ishtirokiga bag'ishlangan ekspozitsiya ham mavjud. "Mustaqil O'zbekistonni qo'riqlash" ekspozitsiyasida qo'shin turlari, harbiylar hayoti, ularning jangovar va harbiy-siyosiy tayyorgarligi haqida ma'lumotlar joy olgan. Metallurglar muzeyni tomosha qilib ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Shundan so'ng kombinat ishchi-xodimlari O'zbek milliy akademik drama teatrida namoyish etilayotgan "Sadoqat bilan" (Ofitserlar) spektaklini tomosha qildilar. Metallurglarimiz Vatan himoyachilariga bag'ishlab tayyorlangan spektaklda teatrning yetuk aktyorlari ijrolaridan bahramand bo'lishib, ko'tarinki kayfiyatga va unutilmas yorqin taassurotlarga ega bo'lishdi.

Bayram munosabati bilan Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'linmasi oshxonasida askaru zobitlar uchun bayram dasturxonini yozildi. Shu bilan birga shahrimiz san'atkorlari tomonidan bayram konserti namoyish etildi. Ular tomonidan ijro etilgan go'zal qo'shiqlar barchaga yuqori kayfiyat baxsh etdi.

KORRUPSIYAGA QARSHI BIRGALIKDA KURASHAMIZ!

Jamiyatda shunday illatlar borki, u ma'lum bir sohaga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga to'g'onoq bo'ladi. Davlatni ich-ichidan yemiradigan ana shunday illat – korrupsiya va poraxo'rlikdir.

Korrupsiya shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma'naviy buzilish holati hamdir. Ushbu illat fuqaroning davlat vakili bilan ma'muriy munosabatlari ma'no-mohiyatini o'zgartirib, jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlariga sabab bo'ladi. Aynan shunday oqibatlar sababli ko'plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma'lum.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev davlat boshqaruviga kelgach 2017-yilda qabul qilingan ilk normativ hujjatlardan biri "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun bo'ldi. Shundan boshlab mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rilmog'da.

Keyingi davrda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish borasida bir qator zarur choralar ko'riladi. Bu haqda to'xtalayotganimizning sababi shuki, jamiyatning har bir a'zosi qonunlarni, xususan, korrupsiya bilan bog'liq qilmishning huquqiy oqibatlari yaxshi bilishi kerak. Qonunni bilmaslik, uning mazmun-mohiyatidan bexabarlik, tabiiyki, korrupsiya jinoyatini sodir etgan shaxsning jazodan qutulib qolishiga

imkon bermaydi. Chunki pora olgan ham, bergan ham, pora olish-berishda vositachilik qilgan ham muqarrar jinoiy javobgarlikka tortiladi. Qonun talabi shunday.

Korrupsiyaga barham berishga faqat davlat va hukumatning kuchi bilangina erishib bo'lmaydi. Shuning uchun mazkur ijtimoiy illatga qarshi butun jamiyat, barcha fuqarolar oyoqqa turmog'i, kurashmog'i zarur.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas

ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak."

Bu jarayonda "O'zmetkombinat" AJ ma'lum ishlarni amalga oshirmog'da. Kombinatimizda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatlarni qaror toptirish uchun tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmog'da. Kombinat faoliyatining ochiq va oshkoraligini ta'minlash va mas'uliyatini oshirish, byurokratiyani kamaytirish va davlat xizmatlarini soddalashtirish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni amaliyotga keng joriy etayapmiz. Xususan komplaens va samaradorlikni baholash reyting tizimlari yo'lga qo'yildi. Davlat xaridlari to'liq raqamlashtirildi.

Aziz metallurglar! Korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashda har birimiz faol ishtirok etishimiz shart. Har birimiz qayerda, qanday muammoga duch kelsak, uning hal etilishida mas'ul shaxslarning mas'uliyatsizligi yoki ta'magirligiga guvoh bo'lganda sharoitga bo'ysunish, indamay ketaverish yoxud chidash o'rniga bong urishimiz kerak.

Zero, korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir.

Akmal SHARIPOV,

"O'zmetkombinat" AJ

boshqaruvi raisining o'rinbosari – Umumiy masalalar bo'yicha direktor.



JINOIY DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISH

IQTISODIYOT UCHUN XAVFLI JINOYAT

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar aholining turmush darajasini oshirishga, shuningdek, tadbirkorlik va boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bu mamlakatimizda ishlab chiqarishning o'sishiga, iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etmoqda.

Shu bilan birga iqtisodiyotda yangi ko'rinishdagi qonun buzilishlari bo'layotganligini ham afsus bilan ta'kidlab o'tamiz. Jumladan tovarlarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlarni yashirish, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash, xufyona tarzda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda boshqa turdagi huquqbuzarliklarni misol qilish mumkin.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legalashtirish jinoyati hozirgi paytda jahon hamjamiyatini xavotirga solayotgan muhim masalalardan biriga aylanmog'da.

Bu jinoyat bevosita poraxo'rlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilish, korrupsiya, ta'magirlik, odamlarni garovga olish, moliyaviy firibgarlik, terrorizm va boshqa jinoyatlarning sodir etilishi bilan bog'liqdir.

Pullarni legallashtirish – bu shunday jarayonki, uning vositasida daromadlarning mavjudligi, g'ayriqonuniy kelib chiqishi yoki ulardan g'ayriqonuniy foydalanish yashiriladi va so'ngra bu daromadlar qonuniy kelib chiqishga egadek tuyulishi uchun niqoblanadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning oshkora daromad manbai bo'lmasada, ular o'z real daromadlaridan bir necha bor yuqori bo'lgan ko'chmas mulk sotib olishi va boshqa xaridlarni amalga oshirishi – buning barchasi legallashtirish belgilaridir.

Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashuvchi davlat organlarining ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda mazkur jinoyat moliyaviy operatsiyalar, oldi-sotdi bitimi, ishbilarmonlik faoliyati, soxta firma va korxona ochish kabi

usullar bilan amalga oshirilmog'da. Ular – daromad olish maqsadida davlat idoralari mansabdor shaxslarining savdo-sotiq faoliyatida qatnashishi, davlat xizmatchilari tomonidan savdo-sotiq tizimidagi asosan yaqin qarindoshlari nomiga rasmiylashtirilgan soxta firmalardan foydalanish, to'g'ridan to'g'ri shaxsiy manfaatini ko'zlagan holda chet tashkilot, firmalar va boshqalarga mablag' o'tkazishda ulardan ta'magirlik qilish, o'zi yoki guruh manfaati uchun normativ hujjatlarni qabul qilishda yoki boshqa tashkilotlarga pul o'tkazishda jonbozlik ko'rsatish kabi xususiyatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 243-moddasiga asosan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, ya'ni mulk (pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirish yoxud sir saqlash jinoyat sifatida e'tirof etiladi. U O'zbekiston Respublikasi JKning "Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar" qatoriga kiritilgan.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 29-iyun kuni "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunni amalga oshirishga doir



qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi qarori qabul qilingan. Unga asosan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan shubhali deb topilgan operatsiyalar haqidagi xabarlar Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga taqdim etiladi.

Bu ijtimoiy salbiy illatni bartaraf etmasak, uning oqibatlari juda xunuk bo'lishi mumkin. Chunki, xufyona iqtisodiyot hissasining ortib borishi jamiyatda ijtimoiy qarama-qarshiliklarning kuchayishiga olib keladi.

Noqonuniy yo'llar bilan to'plangan pul va mol-mulkni legallashtirish natijasida jinoiy tashkilotlar o'zlarining kelajakdagi faoliyatlarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ularning ayrim moliyaviy muassasalardan nazoratsiz foydalanishi moliyaviy tizimga katta zarar yetkazadi. Bunday zarar, ayniqsa, iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar uchun xavfli. Shuning uchun ham bu jinoyatga qarshi nafaqat huquq-tartibot idoralari, balki barchamiz birgalikda kurashishimiz kerak.

Rustam ATAYEV,

Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti direktori.

ZAMONAVIY VA SIFATLI IDISHLAR

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'linmasi barqaror faoliyat ko'rsatayotgan jamoalardan hisoblanadi. Bo'linmada ishlab chiqarish to'liq yopiq texnologik sikl negizida amalga oshiriladi. Mehnat jamoasi tomonidan hozirgi paytda 46 nomda va 250 dan ziyod turda sirlangan idishlar ishlab chiqarilmoqda. Ularning barchasi standart talablariga to'liq mos keladi.

Aholining sirlangan idishlarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida kombinatimizning XIMICH bo'linmasining sirlangan idishlar tayyorlash uchastkasida mehnat qilayotgan soha xodimlari bor tajribalarini ishga solgan holda turlicha chiroyli ko'rinishdagi sirlangan idishlarni uy bekalariga taqdim etib kelmoqda. Aytish lozimki, tayyorlanayotgan sirlangan idishlar sifati va bejirimligi bilan xaridorlarning e'tiborini tortmoqda.

O'tgan oyda jamoa amaldagi narxlarda tovar mahsulotlari

bo'yicha belgilangan rejani 101,2 foizga bajardi. Buyurtmachilar ehtiyojini qondirish bugun sirlangan idishlar ishlab chiqarish bo'limi xodimlarining asosiy maqsadlaridan biridir. Maqsadlari yo'lida harakat qilayotgan jamoa har oydagi topshiriqlarni uddalab mehnat muvaffaqiyatlariga erishib kelmoqda.

Bo'linmada sirlangan idishlarning sifati oshirishga katta e'tibor qaratiladi. Jumladan sirlangan idishlar ustini yog'sizlantirish uchun mo'ljallangan "Sileziya" agregati yangi texnologiyalar asosida



rekonstruksiya qilinganidan so'ng ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati xoriynikidan aslo qolishmaydigan bo'ldi.

Shuningdek, idishlarning dizayni yaxshilanishi natijasida ularning ichki bozor va eksportga sotilishi ko'paydi. Bo'linmada tayyorlangan sirlangan idishlar Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston,

Qirg'iziston, Moldova, Bolgariya kabi davlatlarga eksport qilingan. O'tgan yildan buyon esa Germaniya, Turkmaniston, Tojikiston, Latviya, Chexiya, Ozarbayjonga ham sirlangan po'lat idishlar eksport qilingan.

Mahsulotlarning eksportga yuborilayotganligi ularning sifati yuqoriligidan darak beradi.

BOLALARNING IJODIY SALOHİYATINI KO'RSATDI

Kombinat ishchi-xodimlari farzandlari o'rtasida yangi yil bayramiga bag'ishlab "Eng yaxshi rasmlar" tanlovi o'tkazildi.

Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan ushbu tanlovda 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan yosh rassomlar yorqin ranglar vositasi orqali yangi yil bayramiga bag'ishlab turli xil rasmlarni chizib, o'z iqtidorlarini namoyish etishdi.

Mazkur tanlov rassomchilikka

iqtidori va iste'dodi bo'lgan bolalarning mehnatini yuzaga chiqarishga ko'mak beradigan tadbir bo'lganligi, shubhasiz. Yosh havaskor musavvirlar tomonidan chizilgan suratlarga diqqat bilan tikilar ekansiz, mavzularning rang-barangligi kishi diqqatini tortadi. Ularning har biri alohida e'tiborga ega bo'lib, yoshlarning ijodiy salohiyatini namoyon qildi.

Tadbirda kombinat kasaba uyushma qo'mitasi raisi Elzara Veliullayeva barcha ishtirokchilarni alohida taqdirlab, ularni erishgan yutuqlari bilan qutlab, samimiy tilaklar bildirib o'tdi. G'olib va sovrindorlarga kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan diplomlar va esdalik sovg'alar topshirildi.



BARCAGA XUSHKAYFIYAT ULASHDI

Xalqaro va Respublika tanlovlarida g'olib va sovrindor bo'lgan "Parvoz" namunali bolalar raqs jamoasining hisobot konserti tashkil etildi. Metallurglar madaniyat saroyida to'garak rahbari Gulnoza Turdiboyeva boshchiligidagi namunali bolalar raqs jamoasining "Yangi yil bolalar bilan" deb nomlangan yarim yillik hisobot konsert dasturi barchaga manzur bo'ldi.



Dastur davomida ijro etilgan milliy, rus, hind va boshqa xalqlarning serjilo raqslari ko'ngil-larga o'zgacha kayfiyat baxsh etdi. Shuningdek, konsert dasturida Qorbobo va Qorqizning sarguzashtlari joy olganligi, unda ertak qahramonlarining ham ishtirok etishi tadbirning yanada qiziqarli chiqishiga xizmat qilgan.

Bolalar raqs jamoasi hisobot konserti bilan barchaga xushkayfiyat ulashdi.



Har yili kuz-qish mavsumida fuqarolarning o'z xonadonlaridagi isitish moslamalaridan noto'g'ri foydalanishi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilmasligi oqibatida yurtimizda aholi o'rtasida is gazidan zaharlanish holatlari sodir bo'ladi. Eng yomoni, buning oqibatida o'nlab insonlar vafot etadi.

Is gazi - yonuvchi modda va materiallarning (gaz, yog'och, ko'mir kabilar) chala yonishi natijasida hosil bo'ladigan rangsiz va hidsiz gaz hamda zaharli modda hisoblanadi.

IS GAZIDAN EHTIYOT BO'LING!

Gaz hidini sezgan zahoti gaz avariya dispetcherlik xizmatiga xabar berish, barcha gaz kranlarini yopish, ochiq olovdan foydalanmaslik, darhol eshik va derazalarni ochib, xonani shamollatish, elektr jihozlarini yoqmaslik va o'chirmaslik kerak.

Is gazidan zaharlanish uning havodagi ta'sir muddatiga bog'liq bo'ladi va ular yengil, o'rta va og'ir darajada bo'ladi. Bunday hollarda bosh qattiq og'rib, qusish, hushdan ketish kuzatiladi hamda nafas olish sekinlashadi. Ba'zan o'lim holatiga olib keladi.

Barcha holatdagi og'ir zaharlanihlarda zudlik bilan tez tibbiy yordam chaqirish zarur. Shifokor yetib kelgunga qadar quyidagilarni amalga oshirish kerak:

Is gazidan zaharlanganda birinchi yordam ko'rsatish zaharlangan odamning hayotini saqlab qolishda nihoyatda muhim. Avvalo, gaz tarqalgan joydan jabrlanuvchini tezlik bilan toza havoga olib chiqish kerak. Jabrlanuvchi hushidan ketgan bo'lsa, nashatir spirtini hidlatish, sun'iy nafas berish, tanani ishqalash, issiq choy va kofe ichirish va albatta, tez tibbiy yordamni chaqirish kerak.

Tahlillarga ko'ra, is gazidan zaharlanish holatlarining aksariyati quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga kelmoqda:

Gaz va muqobil yoqilg'i (ko'mir, o'tin va boshqa) turlaridan foy-

dalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya etmaslik;

Qo'lbola yasalgan isitish pechlari va anjomlaridan foydalanish;

Isitish pechlarining dudburonlarini noto'g'ri o'rnatish;

Gaz yoki boshqa muqobil yoqilg'iga moslashtirilgan isitish pechlari hamda suyultirilgan uglevodorod gaz balonlarini dam olish xonalariga olib kirish;

Havo almashmaydigan xonalarini isitishda ochiq olov (ko'mir va o'tin cho'g'lari)dan foydalanish.

Havoni almashtiruvchi shamollatish tuynuklarni berkitib qo'yish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sabablarga ko'ra isitish uchun foydalanilayotgan yoqilg'i (gaz, ko'mir, o'tin va boshqa)ni chala yonishi natijasida is gazi hosil bo'ladi.

Bunday sabablarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymang. Is gazidan zaharlanishdan ogoh bo'ling.

Har bir yurtdoshimiz is gazi xavfidan ogoh bo'lishi va bunga jiddiy e'tibor qaratishi, isitish moslamalaridan to'g'ri foydalanishi, eng muhimi, yuqoridagi sabablarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymasligi lozim.

Javlon UMIRZOQOV,
"O'zmetkombinat" AJ
ob'ektlarini yong'indan
muhofaza qiluvchi Yong'in
xavfsizligi bo'limi katta
inspektori, serjant.

OCHIQ SUD MAJLISIDA

YUZI SHUVUT BO'LDI

OCHIQ SUD MAJLISIDA

Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudida o'tgan oy ochiq sud majlisida navbatdagi ma'muriy ishni ko'rib chiqdik. "O'zmetkombinat" AJda yuk tashuvchi avtomobil haydovchisi bo'lib ishlaydigan Galip Israilov (ismi va familiyasi o'zgartirilgan) o'zgalar mulkini o'zlashtirish aybi bilan sud kursisidan joy oldi.

Huquqbuzar 2024-yil 28-oktabr kuni noqonuniy ishga qo'l uradi. U "O'zmetkombinat" AJga qarashli avtoturargoh hududida bo'lgan 1 tonnali yelimdan ishlangan bochkani yashirincha uyiga olib ketishni rejalashtiradi. Shu maqsadini amalga oshirish uchun tun qorong'usidan foydalanadi. Soat 22:20 larda "Kasaba market" do'konidan umumiy qiymati 1 500 000 so'm bo'lgan, temir panjara bilan o'ralgan bochkani yashirincha uyiga olib ketadi. Uyiga olib borib uni o'zining ehtiyoji uchun ishlatib yuradi. Biroq ko'p o'tmay siri ochilib qoladi. Natijada mahallasida, ishxonasida yuzi shuvut bo'ldi.

G. Israilov sudda bochkani o'z egasiga qaytarib olib kelib berganligi, qilgan ishidan chin ko'ngildan pushaymondaligini bildirdi.

Sud, ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, huquqbuzarning aybi uning sud majlisida bergan iqrorklik ko'rsatuvidan tashqari, ma'muriy bayonnoma, ashyoviy dalilni olish bayonnomasi hamda boshqa to'plangan ish hujjatlariga asosan to'liq o'z isbotini topganligini aniqladi. Huquqbuzarga nisbatan jazo qo'llashda uning shaxsi, yoshi, oilaviy sharoiti va moddiy ahvoli hisobga olindi. Shuningdek, aybiga iqrorkligini, sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini, yetkazilgan moddiy zarar to'liq qoplanganligi inobatga olinib, unga nisbatan qonun sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosi qo'llanildi.

Huquqbuzar O'zbekiston Respublikasi MJtKning 61-moddasi 1-qismi bo'yicha, ya'ni mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxona, muas-



sasa, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan oz miqdorda talon-toraj qilishda aybli deb topildi. Sud qarori bilan unga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari hajmida – 375 000 so'm jarima jazosi qo'llanildi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Bekobod shahar sudi sud'yasi.

MULOHAZA

MULOHAZA

MULOHAZA

MULOHAZA

MULOHAZA

ISROFGARCHILIKKA MUTLAQO YO'L QO'YMANG!

BARCHA AQLI RASO, IDROKLI KISHILARGA MA'LUMKI HAR QANDAY ISHDA O'RTAHOOLIK, MO'TADILLIK VA ME'YOR HAMISHA MA'QULLANIB KELINGAN. HADDAN OSHISHLIK, ISROFGARCHILIK, MANMANLIK VA RIYOKORLIK KABI ILLATLAR ESA QORALANGAN, ULARDAN HAZAR QILINGAN.

VAZIYAT O'YGA TOLDIRADI

Lekin ming afsuski, bugun aksariyat hollarda isrofdan saqlanishga e'tibor bermaymiz, isrofgarga aylanib qolayotganimizni sezmaymiz. Deyarli ko'p narsa, u qimmatli yoki arzon, ahamiyatlimi yoki ahamiyatsiz, nodirmi yoki serob, oldi-ketiga qaramay birvarakayiga isrof qilinishini kuzatish mumkin. Ayniqsa, oziq-ovqatning isrof qilinishini umuman oqlab bo'lmaydi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'ylab tayyor oziq-ovqatning 30 foizi chiqitga chiqariladi. AQSHda bu ko'rsatkich 40 foizgacha, Buyuk Britaniyada 50 foizgacha yetadi, ya'ni yegulikning deyarli yarmi tashlab yuboriladi.

Isrof borasida O'zbekistondagi vaziyat ham o'ylga tolderadi. Birgina poytaxt Toshkentning o'zida kuniga o'rtacha 2 tonna non va non mahsulotlari tashlab yuborilishi ma'lum qilingan.

Yer yuzining behisob ne'matlaridan foydalanib hayot kechirmoqdamiz. Ammo insonlarga shuncha ne'matlarini ato etib qo'ygan Alloh taolo ularni bu ne'matlardan oqilona foydalanishga, tejab-tergab ishlatishga, aslo isrofga yo'l qo'ymaslikka chaqiradi. Bu borada Qur'oni Karim bunday ta'lim beradi:

"...Isrofgarchilikka mutlaqo yo'l qo'ymang! Chunki, isrofgarlar shaytonlarning birodarlaridir. Shayton esa, Parvardigoriga nisbatan o'ta noshukur edi" (Isro surasi, 26-27-oyat) va "...Shuningdek, yeb-ichingiz, (lekin) isrof qilmangiz! Zero, U isrof qiluvchilarni sevmagay" (A'rof surasi, 31-oyat).

NEGA DO'KONLAR TIRBAND BO'LDI?

To'y va marosimlarimizdagi isrofgarchiliklarni qarang. Yeyishga yaroqli qancha ne'matlar uvol bo'lib ketadi. Oshu nonlar ortiqcha tayyorlanib, ortib qolgan yemishlar hayvonlarga beriladi yoki tashlab yuboriladi.

Mana yaqinda Yangi yil bayramini nishonladik. Bayram kunlari bozorlar, do'konlarda oziq-ovqat olish uchun shunchalik tirbandliklar bo'ldiki, bu holatdan bexabar odam ocharchilikdan odamlar o'zlarini oziq-ovqatga urishmoqda yoki qahatchilik kelmoqdami, deb o'ylashi aniq.

Bir kunlik bayram uchun ehtiyojidan oshiq qanchadan qancha oziq-ovqatlar sotib olindi. Ko'pchilik bo'kkanicha, keragidan ziyod ne'matlar tanovul qildi. Yana qancha pishiriqlaru ovqatlar ortib qolib isrof bo'ldi.

Bu paytda dunyoda millionlab odamlar ocharchilikdan qiynalmoqda. Yosh bolalar, go'daklar ochdan o'lmoqda.



Ko'pchilikning xayoliga ocharchilik deganda Afrika qit'asi keladi. Ammo och-nahorlar yonginamizda ham ko'p. Afsuski ocharchilik bizga qo'shni bo'lgan davlat – Afg'onistonga ham kirib kelgan.

733 MILLION KISHI OCHLIKDAN QIYNALMOQDA

Global ochlik indeksi (Glodal hunger index) ning ikki oy avval e'lon qilingan yangilangan reytingida O'zbekiston ro'yxatdagi oldingi 22 davlat orasidan joy egalladi. Shu tariqa, mutaxassislar mamlakatimizda oziq-ovqat bilan

bog'liq katta muammolar yo'qligini tan oldi.

Afg'oniston 127 ishtirokchi orasida 116-o'rinni egalladi. Bu shuni anglatadiki, mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari bilan bog'liq salbiy vaziyat mavjud: to'yib ovqatlanmaydiganlar soni umumiy aholining 30,4 foizini tashkil qiladi. Bundan tashqari, besh yoshgacha bo'lgan bolalarning 44,6 foizining o'sishi zaif, 3,6 foizi esa sillasi qurigan. Bolalarning 5,8 foizi esa besh yoshgacha yashamaydi.

Agar biz chiqindiga tashlayotgan oziq-ovqatlarimizni isrof qilmay bu yon qo'shnimizga yetkazib berganimizda edi, anchagina odamlar ochlik azobidan, hatto o'limdan qutilib qolishi mumkin edi.



Indeksning eng quyi qismida vaziyat "tashvishli" deb hisoblangan mamlakatlar joylashgan. Bu yerda Afrika vakillari – Chad, Janubiy Sudan, Somali, Madagaskar, shuningdek, Osiyodan Yaman joy olgan.

Dunyoda 733 million kishi ochlikdan azi-yat chekmoqda. Bu raqam Germaniyaning "Welt-hungerhilfe" xayriya tashkilotining Berlinda o'tkazilgan "Ocharchilik indeksi" hisobotida keltirilgan.

"ISROFGARCHILIK BARAKANI KETKAZADI"

"Isrofgarchilik barakani ketkazadi" deyishadi donolarimiz. Shunday ekan bugun isrof qilayotganlarimizga ertaga zor bo'lmaylik. Qur'on ta'limiga rioya qilib nozu ne'matlarni isrof qilmay, tejamkorlik va tadbirkorlik ila hayot kechiraylik. Ayniqsa, rizqu ro'zimizning asosiy ramzi bo'lmish non va suvning qadriga yetaylik va e'zozlaylik. Noshukrlik, isrofgarchilik kabi illatlardan saqlanaylik!

Diyor ZULFIQOROV.



O'tgan yil boshlanishida dekret ta'tiliga chiqdim. Biroq oilaviy sharoitim sabab 6 oydan so'ng ishga chiqdim. Ammo ham ishlash, ham bolaga qarash qiyin ekan. Men yana qaytadan dekret ta'tiliga chiqsam bo'ladimi?

A. Salimova.

Mehnat kodeksining 405-moddasiga asosan homiladorlik va tug'ish ta'tili tugaganidan keyin, ayolning xohishiga ko'ra, unga bolasi ikki yoshga to'lguniga qadar bolani parvarishlash ta'tili beriladi. Bu davr uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda nafaqa to'lanadi.

Ayolga uning xohishiga ko'ra, bolasi uch yoshga to'lguniga qadar uni parvarishlash

“DEKRET TA'TILINI DAVOM ETTIRSAM BO'LADIMI?”



uchun ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha ta'til ham beriladi.

Bolani parvarishlash ta'tillari davrida xodim-

ning ish joyi (lavozimi) saqlanadi. Bu ta'tillar-ning ko'pi bilan olti yili mehnat stajiga qo'shila-di, shu jumladan mutaxassisligi bo'yicha ish stajiga ham qo'shib hisoblanadi.

Hozir siz dekret ta'tilidan ishga qaytib bir muncha muddat ishlagan bo'lsangiz ham o'z xohishingizga ko'ra ariza yozib yana qaytadan bolani parvarishlash ta'tiliga bemalol chiqsangiz bo'ladi. Bu ta'til xodimning xohishiga ko'ra beriladigan ta'til bo'lib, xodim undan bolasi 3 yoshga to'lguniga qadar xohlagan paytida foydalanishga haqli. Shu sababli, ariza yozib ta'tilga bemalol chiqsangiz bo'ladi. Bu davrda hech kim sizni ishdan bo'shata olmaydi.

ASOSIY ISH JOYIDAN ROZILIK KERAKMI?



O'rindoshlik asosida ishlash uchun asosiy ish joyidan rozilik kerakmi?

T. Bunyodova.

O'rindoshlik asosida ishlashni o'zingiz hal qilasiz. “O'rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to'g'risida”gi nizamning 6-bandiga asosan o'rindoshlik asosida ishlash uchun ish beruvchining, asosiy ish joyidan kasaba uyushmasi qo'mitasining (xodimlarning boshqa vakillik organining) yoki boshqa organning roziligi talab qilinmaydi. Mazkur asosga ko'ra hech kimning roziligi shart emas.

BOLAGA ONA TOMONDAN FAMILIYA BERISH MUMKINMI?

Bolaning familiyasi faqat ota tomondan boboning ismida bo'lishi kerakmi yoki ona tomondan ham familiya bersa bo'ladimi?

L. Toshmatova.

Bolaga ona tomondagi boboning nomini ham familiya qilib berish mumkin. Xususan, Oila kodeksining 69-moddasiga asosan bola ism, ota ismi va familiya olish huquqiga ega. Bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan, ota ismi otasining ismiga ko'ra beriladi. Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Ota-ona turli familiyalarda bo'lganda ota-onaning kelishuviga binoan bolaga otasining yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning xohishiga ko'ra, bolaga ota yoki ona tomonidan milliy an'analarga ko'ra boboning ismi bo'yicha familiya berilishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarining 23-bandiga ko'ra, bolaning tug'ilganligini

qayd etishda unga familiya ota-onasining kelishuviga ko'ra ota yoki onaning familiyasi, shuningdek milliy an'analarga muvofiq ota yoki ona tomonidan boboning ismi bo'yicha beriladi. Kelishuv bo'lmagan taqdirda nizolar vasiylik va homiylik organi, konsullik okrugida esa konsul tomonidan hal etiladi. Ya'ni, familiya u yoki bu tomondagi boboning ismi bo'yicha beriladi. Qanday familiya berilishini ota-onaning o'zi hal qiladi.



XARAJATLAR KIMNING HISOBIDAN QOPLANADI?

Elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suv hisoblagichlarda nosozlik aniqlansa ularni ta'mirlash yoki yangisiga almashtirish bilan bog'liq xarajatlar kimlarning hisobidan qoplanadi?

I. Inomov.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yuridik va jismoniy shaxslarning elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suvni hisobga olish uskunalarini (hisoblagichlarni) yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning

ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida 698-son qarorida bu savolga javob berilgan. 2019-yil 20-avgustda qabul qilingan bu hukumat qaroriga asosan elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suv hisoblagichlarini ta'mirlash yoki yangisiga almashtirish xarajatlari tegishli hududiy elektr tarmoqlari korxonalari, gaz ta'minoti tashkilotlari, suv ta'minoti yoki hududiy issiqlik ta'minoti korxonalari mablag'lari hisobidan to'liq qoplanadi.

Hisoblagichlar uchun ortiqcha mablag' undirish kabi holatlarda 1008 va 1148 ishonch raqamlariga qo'ng'iroq qiling.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.



MUDDATIDAN OLDIN PENSIYA TAYINLASH TARTIBI QANDAY?

Pensiyaga chiqishi yaqinlashib qolgan fuqarolar ishxonada qisqartirishga tushsalar muddatidan avval qanday pensiyaga chiqadilar?

S. Mahmudova.

Avvalo, ishdan ozod etilgan shaxslar mehnat shartnomasi bekor qilingan kundan so'ng o'ttiz kalendar kun ichida o'zlarining yashash joyidagi tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga ish qidirayotgan shaxs sifatida murojaat qilishlari kerak.

Shundan so'ng, agar ish qidiruvchi shaxslarga tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan uch oylik muddat ichida ikki marta maqbul keladigan ish taklif qilinmasa, bunday holda ular tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limida ish qidiruvchi shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan boshlab ishsiz deb e'tirof etiladilar.

E'tibor bering! Tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan berilgan taqdimnoma budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi tomonidan muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlashga asos bo'lib hisoblanadi.

Muddatidan oldin pensiya erkaklar uchun 58 yoshdan 60 yoshgacha bo'lib, umumiy mehnat staji yigirma besh yildan kam bo'lmagan taqdirda, ayollar uchun 53 yoshdan 55 yoshgacha bo'lib, umumiy mehnat staji yigirma yildan kam bo'lmagan taqdirda tayinlanadi.

ENG SAMARALI CHORA – IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASH

Qish faslida havo-tomchi yo'li bilan o'tadigan yuqumli kasalliklardan tashqari, revmatik xastaliklar ham ayni shu davrda bosh ko'taradi. Revmatik kasalliklarning ichiga bo'g'im kasalliklari ham kiradi. Bo'g'im kasalliklari 150 ta kasallikni o'ziga qamrab olgan.

Odamlarning nogironligiga sabab bo'luvchi kasalliklar juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Bular hammaga tanish – revmatizm, artrit, osteoartrit, tizimli kasalliklar hisoblanadi. Bu kasalliklar ichida eng ko'p tarqalgani esa osteoartrit (osteoartroz)dir. Kasallik umumiy aholining deyarli 4 foizida uchraydi. Oldinlari bu kasallik yoshi kattalarda, ya'ni 60-70 yoshlilarda uchraydi, degan fikr bo'lardi. Bugungi kunda bu kasallik yoshlarda ham uchrayapti. Buning sabablari juda ko'p, lekin aniq bir sababi haligacha aniqlanmagan.

Kasallik kelib chiqishiga modda almashinuvining o'zgarishi, kamharakatlilik, tashqi muhit, to'laqonli ovqatlanmaslik, o'ta sovqotish, haddan



ziyod charchash, past immunitet hamda nasliy moyillik kabi bir qator sabablarni aytib o'tish mumkin.

Bu kasallik mayda va yirik bo'g'imlarni ham shikastlaydi. Kasallikning oldi olinmasa, borib-borib bemorning ahvoli og'irlashishiga va hayot tarzining buzilishiga olib keladi.

Kasallikda bo'g'imlar og'riydi, shishadi, yurak juda tez yoki sekin uradi. Demak yurak maromi buzilishi, ko'krakda og'riqlar, bo'g'imda harakat cheklanishi kabi alomatlar kuzatilishi mumkin.

Bu holatlarda vaqtni o'tkazmay revmatolog shifokorga uchrashish zarur.

Bemor tez tuzalishi uchun uning ovqati oqsilga boy, to'laqonli bo'lishi lozim. Davolashda maxsus antibiotiklar, yallig'lanishga qarshi, immunitetni ko'taruvchi va tinchlantiruvchi preparatlar qo'llanadi. Ular yaxshi samara bermasa, bo'g'imlarga dori yuborish yoki tabobat usullari ko'magida simptomatik ravishda davolanadi.

Bo'g'im kasalliklari faollashgan davrida qon aylanishini yaxshilash maqsadida qo'l va oyoqlarni massaj qilish, badantarbiya ham foydalidir. Agar o'z vaqtida davolanilsa kasallikni jilovlash, tizim va a'zolaridagi jiddiy asoratlarning oldini olish mumkin.

Albatta, kasallikning oldini olsa bo'ladi. Eng samarali chora – immunitetni mustahkamlash. Jismoniy faol turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish, shifokor tavsiyasi bilan zarur vitamin va mikroelementlarni qabul qilish, sog'lom uyqu, rejali ish hamda dam olish tartibi ijobiy natijalar berishi, shubhasiz.

BO'G'IM OG'RIG'IDAN XALOS BO'LISHNI ISTAYSIZMI?

Bu xastalik organizmdagi turli yallig'lanishlar asorati (bodomcha bezlarining surunkali kasalligi) va bo'g'imlarda tuzlarning to'planishi sababli kelib chiqadi. Chunki inson o'z hayoti mobaynida iste'mol qilgan barcha oziq-ovqatlar tarkibidagi tuzlar asta-sekin organizmda to'planib boradi. Yosh o'tgan sari bu tuzlarning yig'ilishi kuchayadi. Oqibatda suyaklarning ustki qismlari, ko'proq bo'g'imlarda to'plangan tuz ta'sirida harakat qilish, bo'g'imlarni bukish va turli harakatlarni bajarish qiyinlasha boshlaydi. Buning ustiga organizmning immuniteti pasayishi natijasida bo'g'imlardagi og'riqlar yanada kuchayadi. Boshqa kasalliklar tufayli ham bo'g'imlar og'rihi kuzatilishi mumkin. Jumladan, jarohatlanish, sinish yoki yoshlikdan suyak va bo'g'imlardagi sinish asoratlari tufayli og'riqlar bo'lishi ham mumkin. Xastalikdan ko'proq yurak shikast topadi. Shuning uchun qadimda bod kasalligi haqida "bo'g'imlarni yalab, yurakni tishlaydigan kasallik" deya bejizga aytilmagan.

Kasallik avval tirsak bo'g'imlarini,

keyin kaft usti bo'g'imlarini, oyoq bo'g'imlarini shikastlab, so'ngra yurakka yetib boradi.



BO'G'IMDA TUZ YIG'ILISHI

Odatda tibbiyot muassasida bunday tashhis qo'yilmaydi. Lekin shunga qaramay bo'g'imlarida og'riq bo'lgan odamlardan bu gapni ko'p eshitamiz. Bo'g'imlarda tuz to'planishi afsona emas, bu patologiyaning sabablari juda ham ko'p.

Noto'g'ri ovqatlanish va ortiqcha vazn, suv-tuz almashinuvidagi genetik buzilishlar,

ortiqcha sovqotish, jarohat va shikastlanishlar, qon yaratish tizimi yoki buyrak kasalliklari, endokrin buzilishlar, bo'g'imlardagi mayda shikastlanishlarga sabab bo'luvchi tor poyabzallar kiyish, tizza bo'g'imidagi jarohat va shikastlanishlar ko'pincha shu sohada tuz yig'ilishiga olib keladi.

QANDAY DAVOLASH MUMKIN?

Avvalambor har qanday holatda to'g'ri parhez tutish kerak bo'ladi. Qovurilgan, achchiq va yog'li taomlar o'rniga o'simliklardan iborat, sutli ratsion tavsiya etiladi. Organizmdan tuzlarni haydash uchun petrushka, shivit, qovun, tarvuz, olho'ri, xurmo kabilarini ko'proq iste'mol qilish kerak.

Bo'g'imlarda tuz to'planganda yallig'lanishga qarshi gel, surtma va habdorilar, gormonal dorilar, siydik kislotasi darajasini kamaytiruvchi vositalar uning tibbiy davosi hisoblanadi.

Bo'g'imlardagi muammo nima sababli (kalsinoz, podagra yoki artroz) yuzaga

kelgan bo'lmasin, xavfsiz jismoniy faollik zarur qilmaydi. Sport va uqalash to'qimalarda qon aylanishini yaxshilaydi va tuzlarning tashqariga haydalanishiga yordam beradi.



ABU ALI IBN SINONING TAVSIYALARI

Abu Ali ibn Sino xantal urug'i bilan bo'g'im kasalliklarini samarali davolagan. U yanchilgan xantal urug'ini asalga aralashtirib, og'riq joyga malham sifatida surishni buyurgan.

Buyuk alloma oshqovoqning etini qo'raga ko'mib pishirgan va undan bo'g'im og'rig'ini to'xtatish uchun foydalangan.

Abu Ali ibn Sino sariq bedaning kukuniga kunjut yog'ini aralashtirib, unga teng miqdorda karam bargi yoki o'zagini maydalab ezib, bo'tqa bo'lguncha aralashtirilib, ana shu bo'tqani bo'g'imlar og'riq joyga malham sifatida surtishni buyurgan.

XALQONA DAVOLARI QAYNATILGAN GURUCH

Yarim litr suvga 2 oshqoshiq tozalangan guruch solib, 5 daqiqa qaynatiladi. So'ngra suvi to'kib tashlanadi. Bu jarayon 4 marta takrorlanishi kerak. Beshinchi marta guruch ustiga yarim litr suv solib, ertalabgacha shu holatda qoldiriladi. Ertalab suvga solingan guruch yana besh daqiqa qaynatib olinadi. Suvi to'kib tashlanadi. Pishgan guruch likobchaga solinib, tuzsiz, yog'siz, nonsiz faqat o'zi iste'mol qilinadi.

Muolaja davomiyligi – 1 hafta. 1 hafta tanaffus bilan yana takrorlash mumkin. Guruch qancha ko'p ivitilsa, o'ziga shuncha ko'p tuzni shimdirib oladi.

"XOLODES" YORDAM BERADI

Bu taom tarkibida ko'p miqdorda oqsil va kollagen mavjud va u tog'ay to'qimalarini qayta tiklab, artroz rivojlanishini sekinlashiradi. Bo'g'imlarda tuz yig'ilishining asosiy sabablaridan biri organizmda oqsil moddasi yetishmasligidir. Buning oldini olish uchun oyda bir bor bo'lsa ham "xolodes" iste'mol qilish kerak.

KARAM HAM FOYDALI

2-3 dona karam bargini qaynab turgan suvga solasiz. Barglar yumshagach suvdan olib, tana kuymaydigan haroratga kelguncha sovitassiz. So'ngra qalin doka mato ustiga qo'yib, bo'g'imlar ustiga bog'laysiz. Boylamni tuni bilan qoldirasiz. Ertalab olib tashlab, kechqurun yana shu muolajani takrorlaysiz. Muolaja davomiyligi 1 hafta.

Sahifani shifokor Mirzaburxon DO'STMURODOV tayyorladi.

Mirzaburxon Do'stmurodovni sportsevar insonlar, ayniqsa, futbol sohasi mutasaddilari juda yaxshi bilishadi. O'zining to'g'riso'zligi, haqgo'y va kuyunchakligi bilan ko'pchilikning diqqat-e'tiborini o'ziga tortgan bu inson Respublikamiz matbuotida dolzarb maqolalari, sportimizni rivojlantirishga oid taklif va mulohazalari bilan faol qatnashib kelgan. Zotan, hozirgi kunda har tomonlama sog'lom va baquvvat avlodni kamolga yetkazmay turib sport sohasida yuksak cho'qqilarni zabt etib bo'lmaydi.

YAXSHIDAN BOG' QOLADI

30 yil "Metallurg" futbol klubi shifokori, qolaversa Bekobodagi "O'zmetkombinat" sport-sog'lomlashtirish majmuasida jamoatchilik asosida yetuk va tajribali mutaxassis sifatida ishlagan Mirzaburxon aka hamisha tibbiy ko'rikning yuksak saviyada bo'lishiga, sportchining jismoniy tayyorgarligi doimiy ravishda mustahkamlab borilishiga harakat qildi. Hozirga qadar M. Do'stmurodovning xuddi shu mavzuda mamlakatimiz markaziy nashrlarida, gazeta sahifalarida ellikka yaqin dolzarb maqolalarni e'lon qilingan. O'zining har bir maqolasida futbolimizdagi muammolar, tibbiy xizmatni yaxshilash davr talabi ekanligini kuyunchaklik bilan bayon qiladi.

"Vijdonim qiynoqda", "Futbol o'ta sog'lomlikni talab qiladi", "Temirni qizig'ida bosish kerak", "Kasalni yashir-sang istimasi oshkor qiladi", "Biz nega jahon chempionatiga chiqolmayapmiz" sarlavhasi ostidagi qator maqolalari hech bir shubhasiz o'quvchini mulohazaga, mushohadaga chorlaydi. Fikrlarini mustaqil, tahliliy ifoda qila olganligi bilan ham gazetxonlar e'tiborini o'ziga tortadi.

Ta'kidlash zarurki, Mirzaburxon Do'stmurodov sport-sog'lomlashtirish majmuasida o'z ishini puxta va aniq reja asosida olib borar edi. Shuning uchun ham sportchilar bilan o'ziga xos tarzda muolaja o'tkazib, zarur maslahatlarini ayamay keldi. Uning huzuriga bolalar ham, kattalar ham kelib birdek murojaat qilishar edilar.

Mirzaburxon aka yaqinda pensiyaga yo'l oldi. Shunday bo'lsada u doimo harakatda. Pensiyada ham bekor o'tirmaydi. Mahallasidagi tomorqasini bog' va uzumzorga aylantirgan.



Ayniqsa, tevarak-atrofning musaffoligi, ko'kalamzorlashtirish davr talabiga aylangan zamonimizda uning bu harakatlari barchaga ibratdir. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash, ko'kalamzorlashtirish va manzarali va mevali daraxtlar ekib, parvarishlashda Mirzaburxon Do'stmurodov boshqalarga namuna ko'rsatmoqda.

Jonkuyar inson mahallada ham obro'-e'tiborga ega. Bu insonning mehnatsevarligidan, barchaga yordamga tayyorligidan ko'pchilik xursand.

Diyor ISMATOV.

ORAMIZDAGI ODAMLAR

O'Z KASBINING USTASI

Klining xizmatining ko'kalamzorlashtirish xo'jaligi ustasi Abduvahob Aliqulov mehnati, insoniylik fazilatlarini bilan jamoamizda hurmat-e'tibor qozongan. U obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida, kombinatimiz gullab yashnashida o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Kombinativ yashil bog'larida, har xil manzarali daraxtlarini ekish va o'stirishda, gazonlarining chiroyli bo'lib turishida bu insonning mehnati kattadir.



Abduvahob aka har bir daraxtga chiroyli shakl berish va ularni avaylab parvarish qilishni shogirdlariga o'rgatib kelmoqda. U o'z yurtini, ona tabiatni sevib ardoqlaydigan, buni o'z shogirdlariga ham o'rgatib kelayotgan o'z kasbining ustasidir.

Abduvahob Aliqulov 1985-yili harbiy xizmatdan so'ng Toshkent Avtomobil transporti va avtomobil yo'llari muhandislari institutiga o'qishga kirib, 1990-yili oliygohni muvaffaqiyatli tugatdi. Beko-

bod shahar avtokorxonasida, keyinchalik Bekobod tumanidagi "Qishloq xo'jaligi texnikalari" korxonasida muhandis bo'lib ishladi.

2010-yilda "O'zmetkombinat" AJda ish boshladi. Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish sexida usta, keyinchalik boshliq o'rinbosari, bosh mexanik lavozimlarida ishlagan.

Hozirgi vaqtga kelib, Abduvahob aka Klining xizmatida ko'kalamzorlashtirish xo'jaligi ustasi lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda. Ustoz sifatida ko'plab shogirdlar tayyorlab berdi. Kombinativ rahbariyati tomonidan bir necha bor rag'batlantirilgan.

U umr yo'ldoshi Zamira opa bilan 4 nafar farzandini el-yurtiga fidokorona xizmat qiladigan insonlar etib tarbiyaladi. Endilikda uch o'g'il turli davlat korxonalarida mehnat qilishmoqda. Katta farzandi harbiy qisma zobit, kichik o'g'li muhandis. U Navli prokatlash bo'linmasida ishlaydi. Yana bir o'g'li Toshkent shahrida bank xodimi.

Yaqinda Abduvahob aka tabarruk 60 yoshni qarshi oldi. Uni hamkasblari, shogirdlari hamda jamoamiz nomidan muborak yoshi bilan tabriklaymiz.

Xurshid VALIBEKOV,
Klining xizmati ishchisi.

"O'ZMETKOMBINAT" AJ AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

Toshkent viloyati, Bekobod shahri, Sirdaryo ko'chasi, 1-uyda joylashgan "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati 2025-yil 10-fevral kuni soat 11:00 da aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini (internet orqali onlayn rejimda, masofadan turib yig'ilishni olib borish imkonini beruvchi <http://evote.uz/> manzildagi "eVOTE" - Elektron ovoz berish xizmatidan foydalaniladi) Bekobod shahri, Istiqbol ko'chasi, 1-uyda "Metallurglar madaniyat saroyi"da o'tkazilishini ma'lum qiladi.

Aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi:

- aksiyadorlarni xabardor etish uchun - 2025-yil 17-yanvar;
- aksiyadorlar ishtiroki uchun - 2025-yil 4-fevral.

KUN TARTIBI:

1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining reglamentini va sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash.
2. "O'zmetkombinat" AJning yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
3. "O'zmetkombinat" AJning 2024-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yakunlarini moliyaviy hisobotlarning milliy standartlari talablariga muvofiq tekshirish uchun

auditorlik tashkilotini belgilash.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi qarori ijrosini ta'minlash.

5. "O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv kengashi a'zolarini rag'batlantirish tartibini belgilash to'g'risida"gi nizomni yangi tahrirda tasdiqlash.

Aksiyadorlar va ularning vakillari 2025-yil 10-fevral kuni soat 9:30 dan 10:30 gacha ro'yxatdan o'tkaziladi.

Aksiyadorlardan shaxsini tasdiqlovchi hujjat, aksiyador vakilidan qonunchilikka asosan rasmiylashtirilgan ishonchnomaga ega bo'lishlari so'raladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishiga doir axborotlar (materiallar) bilan Toshkent viloyati, Bekobod shahri, Sirdaryo ko'chasi, 1-uyda joylashgan "O'zmetkombinat" AJning Korporativ munosabatlar boshqarmasida tanishish mumkin. Qo'shimcha ma'lumot uchun:

Korporativ veb-sayt: www.uzbeksteel.uz
Telefon: +998 70 214 13 86 (ichki raqam: 10-46, 13-22)

Elektron pochta manzili:
sh.abduraxmanova@uzbeksteel.uz

40 YOSH DAN YUQORI AHOLI UCHUN ESLATMA

Qandli diabet (xalq orasida "saxar kasalligi" deb ham aytiladi) - tanada uglevod va suv almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan kasallik. Me'da osti bezi funktsiyasi buzilishi oqibati hisoblanadi. Me'da osti bezi insulin gormonini ishlab chiqaradi. Insulin qandni qayta ishlashda qatnashadi. Bu gormonsiz organizm qonda-gi glyukoza miqdorini me'yorda ushlab tura olmaydi va uning miqdori oshib ketadi. Natijada organizm ortiqcha glyukozani siydik orqali chiqarib yuborishi kuzatiladi. JSST ma'lumotiga ko'ra butun dunyoda 400 mln. dan ortiq kishi qandli diabetdan aziyat chekmoqda.

Odam 40-yoshdan oshganda unda yurak-qon tomir kasalliklari va qandli diabet va onkologik kasalliklar xavfi ortadi. Shu sababli ularni tezda aniqlab davolash muolajalarini barvaqt boshlash kelajakda rivojlanishi mumkin bo'lgan asoratlarning oldini olishini hisobga olib Sogliqni saqlash vazirligining buyrug'i asosida maxsus klinik protokollar asosida Bekobod shahar 1-oilaviy poliklinikasi "O'zmetkombinat" ishchi-xodimlarini, 40 yoshdan yuqori bo'lgan aholi qatlamlarini qandli qiabet va yurak ishemik kasalliklarini erta aniqlash skriningi tekshiruviga taklif qilamiz.

Nargiza BOYMATOVA,
Bekobod shahar 1-Oilaviy poliklinika amaliyot hamshirasi.

QISQA VA TA'SIRLI HIKOYALAR

GULDON

– Axir bu qimmat guldon edi! – kuchdan qolgan qari qaynonasiga baqirdi kelin. – Nima qilib qo'yganingizni bilasizmi?

Qo'pol muomaladan kampirning ko'zlarida yosh aylandi.

Oradan ancha yillar o'tdi. Bu kelinning o'zi qaynona bo'ldi. Kunlarning birida uyni yig'ishtirayotganda bexosdan guldonni sindirib qo'ydi.

Ayol qo'rqa-pisa uning siniqlarini yig'ishtirib olayotganida kelini kelib qoldi.

– Voy, o'lay! Bu nimasi?! Ajalimdan besh kun burun go'rga tiqmoqchimisiz meni? Bo'ldi, yetar! Qiliqlaringiz hiqildog'imga keldi. Dadam Parijdan olib kelgan guldonni yerga otib sindirganingizni va bu qilmishingizni qanday yashirishga uringaningizni o'g'lingizga aytib beraman. Narsalaringizni yig'ishtiring! Qariyalar uyiga olib borib qo'yaman! Sizning joyingiz

o'sha yerda!

Uqubatdan yuzlaridagi chiziqlari bililib, ko'ngli ozor chekkan ayolning yuzi g'alati tarzda qiyshayib qoldi va bir vaqtlar qaynonasiga aytgan mana shu tanish so'zlarini eslab, ho'ngrab yig'lab yubordi.

ISHSIZ QOLSANG HAM,
ROST GAPIR!

Ishga qabul qilish uchun suhbat vaqtida:

– Kompaniyamizda ikkita asosiy qoida bor. Ikkinchi asosiy qoida – bu ozodalik. Kirishdan oldin ostonadagi gilamchaga oyog'ingizni artdingizmi?

– Albatta, janob!

– Birinchi asosiy qoida – bu to'g'ri-so'zlik! Ostonada hech qanday gilamcha yo'q edi. Bo'shsiz!

Qissadan hissa: Ishsiz qolsang ham, rost gapir!



TARBIYA

Maktab ro'parasidagi uy. Ota endi tili chiqqan bolasiga so'z o'rgatardi:

– Bitta so'k bolam, oyingni bitta so'kkin...

Oradan ancha yil o'tdi. Maktab ro'parasidagi o'sha uyda ota o'g'liga tanbeh berardi:

– Ahmoq, onani ham so'kib bo'ladimi...

Temurmaliq O'KTAMOV.



IBRAT IZLAGANGA IBRATDIR DUNYO

KUYOVINGIZ
O'ZINGIZGA O'XSHASIN!

Bir kishini tanirdim. O'tmishi notekis edi... Kunlardan bir kun u odam o'zgardi, butkul o'zgardi. Xunuk fe'llarini tashladi. Ko'pchilik hayron qoldi. Men ham lol edim. Barcha u haqda "Shu-ya, nahot shu odam-a?" – derdi.

Bir kun u "yorildi", sababini aytdi. "Yo'l chetida turgan qariyani olib ketdim, rahmim keldi. Manzilga yetgach pul bermoqchi bo'ldi, olmadim. Qo'llarini duoga ochib, "omin, kelinlaringiz ayolingizga, kuyovlaringiz o'zingizga o'xshagan bo'lsin, omin, rahmat o'g'lim", dedi-da, tushib ketdi. Men bunday duo eshitmagandim. Qarg'ishdek tuyuldi, vujudim titrab ketdi, shu kundan ich-etimni yedim. Nahot kuyovlarim menga o'xshaydi dedim. O'zimning kim ekanligimni his qilib, o'zimdan hazar qildim. Shu-shu, "ishlarim"ni tashladim.

Muhtaram o'qiguvchim, Sizning ham kuyovingiz va kelinizing o'zingizga o'xshasin! Qani bir "Omin!" deng...

Salim AYYUBIY.

SAKKIZLIK

1. Keksalarni uzoq umr ko'rganligi uchungina emas, hayot sinovlariga uzoq bardosh bergani uchun ham hurmat qilmoq kerak.

2. Yaxshigayam, yomongayam birdek yaxshi ko'rinishga urinadigan odam eng xavfli odamdir.

3. Sartaroshni suvoqchi qilib qo'ysangiz, devorga sovun ko'pigi surtadi. Etikdo'zni sartarosh qilsangiz, odamni boshiga mix qoqadi...

4. Ertalab turganingda, kunduzi yurganingda, kechasi uxlaganingda hech qaering og'rimasa shuning o'zi baxt!

5. Dunyoda mehrdan arzon narsa yo'q. Bir og'iz shirin so'z, bir chimdim mehr kimni o'ldiribdi! Biz esa shuni ham bir-birimizdan ayaymiz..

6. Mushuk o'zi itdan qochib daraxtga chiqadi-yu, yana daraxtdagi qushlarga dag'-dag'a qiladi...

7. Insonning bahosi bu dunyoda o'zi olgani bilan emas, o'zidan qolgani bilan belgilanadi.

8. Daraxt bir joyda ko'karadi, deyishadi. To'ppa-to'g'ri, bu gap daraxtlarga juda mos tushadi. Odamlarga emas!

O'tkir HOSHIMOV.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

A. Temur davlatining Konstitutsiyasi qanday nomlangan?

Mirzo Ulug'bek tomonidan qaysi madrasa peshtoqiga "Ilm olish har bir muslim va muslima uchun ham farz, ham qarzdir" deya yozilgan?

Bobur dovyurakligi va jasurligi uchun yoshligidan qanday laqab oladi?

"Agar bizning qudratimizga shubha qilgudek bo'lsangiz, biz qurdirgan imoratlarni ko'ring" so'zlari qaysi inshoatga yozilgan?

Alisher Navoiyning xalqimiz oldidagi buyuk xizmati nimada?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

O'zbekiston Qahramoni.


Avesto kitobi.

Ahmad al-Farg'oniy Yevropada "Alfraganus" nomi bilan tanilgan.

Muso alayhissalomning xassasi.

Arab tili gramatikasini Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan buyuk bobomiz Mahmud az-Zamaxshariy mukammal ishlab chiqqan.

Buyuk o'zbek astronomi, matematigi va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek.



XANDALAR!



Ko'p qavatli bino atrofiga juda ko'p odam to'plangan. Hamma tomdan o'zini tashlamoqchi bo'lgan kishini tomosha qilyapti. Nihoyat, kutaverib charchagan bir xotin unga qarab qichqiryapti:

– Sakramoqchi bo'lsang, tezroq sakra! Seni deb ishgacha qoch qolyapmanku!

– Dada, esingizdami, institutdan qanday haydalganingizni aytib bergan edingiz.

– Ha, o'g'lim.

– Tarixiy voqealar takrorlanib turadi, deganlariga endi ishonch hosil qildim.

Bir ishxonada boshliq latifa aytib ishchilarini kuldirayotgan ekan. Hamma tizzaga urib kularmish. Bir odam hech kulmay, jim turaveribdi. Undan:

– Nega kulmayapsan, – deb so'rashsa:

– Men bu yerda ishlamayman, – dermish!

Quloqqa chalingan gaplardan:

– Moliyachi mutaxassislar hayot tarzimiz kun sayin yaxshilanib borayotganini aytishmoqda.

– Lekin xalq unday demayapti-ku?!

– Chunki xalq mutaxassis emas-da!...

To'y avjiga chiqqan. Hamma xursand. O'yin-kulgi qizigan vaqt to'yxonada o'ynab yurgan bolakaylar bir-biriga:

– Kuyov bilan bir hazillashamizmi?...

– Ketdik! – deb kelin-kuyovni oldiga borishibdi-da, kuyovga:

– Dada, bizlar bilan ham rasmga tushing, – deyishibdi...

Buyurtmachi qurilish rahbariga debdi:

– Uyimning devorlari judayam yupqa emasmi?

Qurilish rahbari:

– Xavotir olmang, hali devorlarga oboy yopishtirib chiqamiz!

YANVAR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30	31		

FEVRAL

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
					1	2
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28		

MART

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
					1	2
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	30
31						

APREL

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
	1	2	3	4	5	6
7	8	9	10	11	12	13
14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27
28	29	30				

MAY

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
			1	2	3	4
5	6	7	8	9	10	11
12	13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24	25
26	27	28	29	30	31	

IYUN

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
						1
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30						

2025-YIL

— ATROF-MUHITNI
ASRASH VA “YASHIL”
IQTISODIYOT YILI

UMUMXALQ BAYRAMLARI

1-yanvar – Yangi yil bayrami.
8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni.
21-mart – Navro'z bayrami.
9-may – Xotira va qadrlash kuni.
1-sentabr – O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni.
1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni.
8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni.
 Ramazon hayiti.
 Qurbon hayiti.



IYUL

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
	1	2	3	4	5	6
7	8	9	10	11	12	13
14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27
28	29	30	31			

AVGUST

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
				1	2	3
4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31

SENTABR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30					

OKTABR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30	31		

NOYABR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
					1	2
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	30

DEKABR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				



MUASSIS:
 O'zbekiston metallurgiya
 kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

Muharrir:
 Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
 "O' zmetkombinat"
 aksiyadorlik jamiyatining
 Metallurglar madaniyat saroyida
 joylashgan.
 Tel: 10-19

Gazeta oyda bir marta
 chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
 terilib, sahifalandi va "Niso
 nashriyot va matbaa uyi" MCHJ
 bosmaxonasida chop etildi.
 Bosmaxona manzili:
 O'rta Chirchiq tumani "Mash'al"
 mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

Sahifalovchi:
 Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00
 Bosishga topshirildi-14.20
 Adadi 600. Bichimi A-3.
 ISSN 2181-645X
 Gazeta "O' zmetkombinat"
 Ajda bepul tarqatiladi.

Buyurtma №